

EPITETLAR «ORZIGUL» DOSTONIDA LINGVOPOETIK VOSITA SIFATIDA

Otabek Chiniqulov

Mutaxassislik: 5A120102-Lingvistika (o'zbek tili)

(1-bosqich)

Poetik asarlarning eng muhim unsurlaridan bo'lgan epitetlar dostonlar matnining yuzaga kelishida g'oyat muhim rol o'ynaydigan tasviriy vositalardan biri sanaladi. Shu bois uning badiiy-estetik ahamiyati haqida tadqiqotchilar alohida to'xtalishgan.

Darhaqiqat, ilmiy adabiyotlarda *epitet* deb nomlanadigan *sifatlashlar* xalq og'zaki ijodi, xususan, dostonlar tilida alohida mavqega ega. Uning asar qahramonlari ta'rif-u tavsifi uchun nihoyatda zarur tasviriy vosita ekanligi uning ana shu mavqeini belgilaydi. Dostonlar matnida qahramonlarning bir qadar bo'rttirilib mubolag'a bilan tasvif etilishi epitetlarning keng qo'llanilishiga zarurat tug'diradi. Epitetlarning tadqiqotchilar tomonidan *poetik aniqlovchi* deb nomlanishining boisi ham ana shunda.

Epitet – grekcha epitheton so'zidan olingan bo'lib, *izohlovchi* degan ma'noni beradi. Epitet tilimizda mavjud bo'lgan va qo'llanishi odat tusiga kirib qolgan doimiy sifatlashlardan o'zining ta'sirchanligi, ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan farqlanadi.

Nutqimizdagi oddiy aniqlovchilar ma'lum narsa-hodisalarning belgi-xususiyati to'g'risida ma'lumot berish bilan cheklansa, badiiy epitetlar muallif tomonidan tasvirlash obyektining so'zlovchi nuqtayi nazarida muhim hisoblangan tomonini alohida ta'kidlab, bo'rttirib ko'rsatishga xizmat qiladi. Ayniqsa, poetik matnlarda epitetni qo'llashda bu muhim hisoblanadi. Chunki poetik matnlar til birliklarini qamrab olishi va qo'llash imkoniyatlariga ko'ra prozaik matnlardan keskin farq qiladi. Poetik matnlarda qo'llanilgan so'zlarning badiiy-estetik ta'siri kuchliroq ifodalanishi ifoda-tasvir vositalarining o'rinli qo'llanilishiga bog'liq bo'ladi. «U predmet yoki voqea-hodisaning belgisini ajratib ko'rsatish yoki o'zini aniqlab kelish bilan birga, o'sha predmet yoki voqea-hodisaga badiiy bo'yoq beradi, obrazlilikni tug'diradi. Bir so'z bilan aytganda, epitet – badiiy aniqlovchidir», deb yozadi S.Karimov.

Xalq dostonlari tilida epitetning uslubiy vosita sifatida qo'llanish imkoniyatlari avvalo, ijrochining xalq milliy-ma'naviy qadriyatlarini, urf-odatlarini, an'analarni bilishi, o'zining yoshiga, bilim saviyasi, jinsiga, ijtimoiy hayot tarzi, qaysi hududda yashayotganligiga ham bog'liqligi uchun tadqiqotchi G.Jumanazarova bu tasviriy vositaga xos bo'lgan quyidagi jihatlarni sanab o'tgan edi: «Nazarimizda, *birinchidan*, sifatlashlar epik qahramonlarning tana a'zolari, kiyim-kechaklari, qurol-yarog'lari, xatti-harakatlariga nisbatan qo'llanilganda xilma-xil ranglar, ijobiy yoki salbiy sifatlar va ularga daxldor poetik bo'yoqdorlik, subyektiv va obyektiv baho ottenkalari, tabiat va xulqiga oid tasviriy vositalar silsilasini tashkil etgan. *Ikkinchidan*, sifatlash ko'magida epik bayondagi

obyektning qaysi jihatdan xarakterlash va fikr oqimi ifodasi uchun muhim bo'lsa, shu jihati bo'rttirib tasvirlangan. Bu bilan so'z zargari tinglovchining e'tiborini o'ziga jalb etib, poetik taassurotining kuchayishiga yo'l ochib bergan. *Uchinchidan*, xalq dostonlarida qo'llanilgan sifatlashlar matnda bajaradigan vazifasining muhim ifodachisi bo'lgan so'z bilan aloqaga kirishib, poetik mohiyat kasb etgan».

Xalq dostonlari tilida xalqimizning sof milliy tabiatini aks ettiruvchi epitetlarning barcha turlari qo'llanilishini e'tirof etgan holda dostonlar tilining «o'z epitetlari» borligini ham eslash joiz. Bu haqda S.Karimov quyidagilarni yozgan edi: «Badiiy uslub doirasida, eng avvalo, xalq og'zaki ijodi uchun xarakterli bo'lgan doimiy epitetlar qaralishi kerak. Chunki, bu epitetlar xalq tomonidan, san'atkorlar, baxshilar tomonidan ko'p vaqtlardan buyon qo'llanilib kelinayotgan, yaxlit, quyma holiga kelgan an'anaviy tasviriy vositalardir. Leksik jihatdan ular qudratli hayvonlar, uchqur qushlar, umuman ijobiy yoki salbiy xususiyatlari kuchli bo'lgan predmet va jonivorlarning xususiyatlarini bildiruvchi so'zlar bo'lib, ulardagi ana shu ayrim xususiyatlar insonga yoki predmetga ko'chiriladi. Ular shu tariqa qurol-aslahalarga, xalq qahramonlariga mos sifatlar berish natijasida maydonga kelib, xalq orasida, og'zaki ijod namunalarida yashayveradi va hatto o'z aniqlanmishidan ajratib bo'lmaydigan holga kelib qoladi».

«Orzigul» dostonida epitetlarning qo'llanilishi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. *Toza* so'zi epitet sifatida qo'llanilib, gunohsiz, iffatli ma'nosini ifodalaydi. Misol uchun doston matnida 8 marta qo'llanib, 6 o'rinda faqat *toza gul* (269, 272, 286, 318, 332, 370) birikmasi tarkibida kelgan va insonning badiiy tavsifi vazifasini bajargan:

Bog'bon bo'lib tergin toza gulingni,

Kambag'alsan, xo'b bilaman holingni (269).

Bulbul yaxshi ko'rar toza gulingni,

Xosxona der poytaxtli elingni (272) kabi.

Qolgan ikki o'rinda mazkur so'z dialektal ma'nosi – *juda, obdon, chuqur, rosa, sinchiklab, diqqat bilan* so'zlarining sinonimii sifatida qo'llanilgan:

Biz kelguncha toza o'ylab, fikr qil

Podsho agar qizing olsa, shukur qil! (278)

Birodarlarni, toza shunga qaranglar,

Mabodo, bo'lmasin to'rang bolasi (365).

Dostonda qizning go'zalligini ta'riflashda xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan an'anaga rioya qilinadi. Ayni paytda, doston muallifining o'z qahramoniga bo'lgan subyektiv munosabati ifoda etiladi. Asarning bosh qahramoni Orzigulga nisbatan qo'llanilgan epitetlar turkumini olib ko'raylik: *aqlli, alif qomat, bibi, bol*

labli, gul yuzli, dilbar, dilovar, dono, jodu ko'zli, zarafshon kokil, ko'zlari suzik, ko'zlari xumor, mushtipar, nozli gul, nozli dilbar, nurli betli, oy yuzli, oydayin yuzli, oq yuzli, oshiq gul, sumbul sochli, suchuk tili, xipcha bel, xumor ko'z, xumor ko'zli, xushro'y, cho'lpon yulduzi, qalam qosh, qizil tarzli, qoshi qora, husni xiromon kabi. Misollar: Orziguloy aqlli, dono kelinni, Ham ko'rayin Dilmurodxon qo'zimni (367). Shunda Suvonxon Orzigulga qarab: - Meni elimga quruq jo'natma! – deb bir so'z dedi: Alifday qomating, xipcha belingdan, Balli, sening soz qayirgan qo'lingdan (305). Bir kosa suv olib bergin, gul yuzli, Suvni o'ynab turib nozik qo'l bilan (301). Orziguloy aqlli, dono kelinni, Ham ko'rayin Dilmurodxon qo'zimni (367). Orzigul zarafshon kokilin tishlab, chap qo'li bilan kokilin ushlab, o'z-o'zining vaqtini xushlab, ota-enasining qoshidagiday, necha g'amza o'yin boshlab turibdi (301) va hokazo.

Dostonning ikkinchi bosh qahramoni Suvonxonga nisbatan qo'llangan epitelar ham Islom shoir qo'llagan epitelar sirasida bosh qahramonlarining jismoniy va ma'naviy qiyofasini butun borlig'i bilan namoyish eta olgan g'oyatda ishonchli tasviriy vosita sifatida namoyon bo'lgan. Masalan, ular Suvonxonning tashqi qiyofasini (*gul yuz, gul yuzli, ipak ko'ylakli, nargiz ko'z, navjuvon, sarvi sanobar qomat, tilla kamarli, xushro'y yuz, cho'lpon yulduz, yuzlari oy, o'tkir ko'zli, qora ko'z, qora qosh, qoshlari yoy, qo'sh kokil*), ma'naviyatini (*aqli raso o'g'lon, barkamol o'g'lon, vallamat, shirin so'zli, chin oshiq*), kuch-qudratini (*ajdahosifatli, ajdaho(r), arslon, azamat, botir, yo'lbars bilakli, lochin, mard, mard ajdahor, polvon, chaqqon, sher haybatli, uchar qushday, sher yurakli, qarchig'ay, qatordagi nor*) aks ettiradi. Ayni paytda, baxshining va asardagi boshqa obrazlarning unga bo'lgan subyektiv munosabatini bildiruvchi epitelar ham salmoqli: *begijon, yolg'izim, jismimning joni, jon, jonidilim, jonon, ko'zimning ravshani, ko'rar ko'zim, madadim, nargisim nodon, saraton yulduzli, suyangan rahbar, tanimning quvvati, er yigit, o'g'lon, qora ko'zim, quvvatim, qunduzim, ham o'g'lim, ham qizim* kabi. Masalan: Shunda podsho o'g'liga: - Qo'sh kokilim, suyanganda Asqarday belim, qatordagi norim, Suvonxon ajdahorim, senikidir ushbu shahrim (292). Dol bo'yingdan menday oyim o'rgilur. Ajdahosifatli sizga yo'l bo'lsin? (343). Do'stim deb edi Suvonday azamatni, Ul qalandar emas ekan, qiz ekan (318). Suvon deydi azamatdi, Bilmayman pasti-balanddi (326). Men bir ko'rdim aqli raso o'g'lonni, Yaxshilab pishiringlar shirmoyi nonni (363). Omon borib keldingizmi? Begijon, anjum sipoyim (324) singari.

Bu kabi epiteltarning qo'llanishida keng ko'lamlilik ustunlik qiladi. Suvonxon qiyofasiga berilgan ta'rifu tavsiflar ham muallif tilidan, ham qahramon atrofidagi yaqinlari tilidan berilaveradi.

Doston tilida yana shunday epitetli jumlar uchraydi:

Otim Orziguldir, **gul yuzli dilbar**,

Bu boshima rahbarsizdir, muqarrar (280)

O'lmasam jahonda davron suraman,

*Javob ber, qaddingdan, **gul yuzli dilbar** (326).*

***Dilbar qizing** bergin shu hukmdorga,*

Bo‘lmasa qissa shu - osilasan dorga (275).

Doston tilidagi tahlil etilgan yana misollarga e’tiborimizni qaratamiz:

*Oyna olib, **sunbul sochim** tarayman,*

Yig‘laganing, ikki rahbar, so‘rayman (276).

Aslida *sunbul* so‘zi o‘simlik nomi bo‘lib, u epitet sifatida qo‘llanish bilan qiz sochining go‘zalligi, mayinligi ma’nolarini o‘zida mujassamlashtirgan. Shunday holatni ko‘zga nisbatan qo‘llangan epitetlarda ham ko‘rish mumkin:

*Men aylanay sening **nargiz ko‘zingdan**,*

Ham gavharim, ham bir mening mehrimmi? (333).

Dostonda qo‘llanilgan epitetlar nafaqat tasvirlanayotgan kishining tashqi ko‘rinishi, balki uning nutqi, so‘zlashiga ham ishora qiladi:

Ko‘zim yoshlab, mushtiparman qarayman,

*Men ayrildim **shirin so‘zli** mardimdan (328)*

Dostonda Oqqiz tasviri quyidagicha beriladi: *Oqqiz qobirg‘alari qoq qiz, o‘rta bo‘yli chaqqon qiz, muchasi o‘n to‘qqiz qiz. Oqqiz yuganni qo‘liga olib, Olmako‘zni yuganlayin deb qichqirib, bir so‘z dedi (295).*

Bu epitetlar ham doston tilida qahramon tashqi ko‘rinishi, xarakter-xususiyatini yoritishga yo‘naltirilgan. Ammo doston tilida epitetlar asosan bosh obrazlar – Orzigul va Suvonxon bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun keltirilgan epitetlar qahramon tashqi ko‘rinishi, xulq-atvori bilan bog‘liq jihatlarni yoritishga xizmat qilgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Shunday qilib, epitetlarda xalqimizning tildagi birliklar vositasida borliqni va undagi narsa-predmetlarni ta’riflash va o‘z lisoniy manzarasida aks ettirish xususiyatlari o‘z badiiy ifodasini topgan bo‘ladi. Epitetlarda xalqimizning milliy-ma’naviy xususiyatlari, voqelikni qay darajada idrok qilishi, voqelikka munosabati, tafakkuri, til birliklarini qo‘llash mahorati kabilar o‘z ifodasini topadi. Shu boisdan epitetni lingvomadaniy hodisa sifatida tadqiq qilish tilshunoslikdagi muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. *Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.*

2. *Abdullayev A.* O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. -Toshkent, Fan, 1983.
3. *Boboyev T.* Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
4. *Jumanazarova G.* Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li dostonlari tilining lingvopoetikasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2012.
5. *Yo‘ldoshev B., O‘rinboeva D.* O‘zbek xalq dostonlarining chastotali izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
6. *Karimov S.* Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. – Samarqand: SamDU nashri, 1994.
7. *Mahmadiyev Sh.S.* O‘zbek xalq dostonlari tilida stilistik formulalar. Fil.fan. nomz.dis.avtoref. – Toshkent, 2007.
8. *Rasulov T.* Badiiy obraz va obrazli tasviriy vositalar. // O‘zbek tili va adabiyoti, 1965, № 5.
9. *Umurqulov B.* Poetik nutq leksikasi. – Toshkent: Fan, 1990.
10. *Shoabdurahmonov Sh.* Ergash Jumanbulbul asarlarida ifoda va tasviriylik. // O‘zbek tili va adabiyoti, 1970, № 5.
11. *Qo‘ng‘urov R.* O‘zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent, 1977.

Magistrantlarning XIV ilmiy konferensiyasi materiallari-2014